

## GOSPITAL TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI O'YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Kurbanova Baxora Zafarovna**

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi  
"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi pedagog xodimi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gospital ta'lim sharoitida uzoq muddat davolanayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini o'yin texnologiyalari orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif gospital pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarda uchraydigan psixologik to'siqlar va ularni bartaraf etishda o'yinli metodlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada gospital sharoitga moslashtirilgan "Sehrli planshet", "Matematik terapiya", "Do'koncha" kabi amaliy o'yin usullari va ularning bolalar reabilitatsiyasidagi o'rni bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** gospital ta'lim, matematik tafakkur, o'yin texnologiyalari, boshlang'ich sinf, pedagogik reabilitatsiya, gospital pedagogika, individual yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития математического мышления учащихся начальных классов, находящихся на длительном лечении в условиях госпитального образования, посредством игровых технологий. Автор анализирует специфику гопитальной педагогики, психологические барьеры у учащихся и роль игровых методов в их преодолении. В статье описаны практические игровые приемы, адаптированные к больничным условиям, такие как «Волшебный планшет», «Математическая терапия», игра «Магазин», а также их роль в реабилитации детей.

**Ключевые слова:** гопитальное образование, математическое мышление, игровые технологии, начальные классы, педагогическая реабилитация, гопитальная педагогика, индивидуальный подход.

**Abstract:** This article explores the development of mathematical thinking in primary school students undergoing long-term medical treatment in a hospital education environment through game technologies. The author analyzes the specific characteristics of hospital pedagogy, psychological barriers faced by students, and the significance of game-based methods in overcoming them. The paper describes practical game techniques adapted to the hospital setting, such as "Magic Tablet," "Math Therapy," and the "Shop" game, highlighting their role in the overall rehabilitation of children.

**Keywords:** hospital education, mathematical thinking, game technologies, primary school, pedagogical rehabilitation, hospital pedagogy, individual approach.

Kirish. Gospital ta'lim muhiti o'zining murakkabligi va o'ziga xosligi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Bunday sharoitda pedagogning zimmasiga nafaqat bilim berish, balki uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ruhiy va ijtimoiy holatini barqarorlashtirish vazifasi ham yuklanadi. Statsionar sharoitdagi ta'lim jarayoni bolaning sog'ayishiga ko'maklashuvchi reabilitatsiya vositasidir. Zero, "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 28-moddasida har bir bolaning, uning salomatligidan qat'i nazar, ta'lim olishga bo'lgan huquqi davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham statsionar sharoitda davolanayotgan shaxslarning ta'lim olish huquqi alohida e'tirof etilgan. Gospital ta'lim jarayonida har bir bolaning individual imkoniyatlari va tibbiy holati birinchi o'ringa chiqadi. Mazkur jarayon pedagogik mahoratni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladigan o'ta

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

nozok sohadir. O'quvchining kasallik bilan kurashayotgan bir paytda bilim olishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish gospital o'qituvchining asosiy professional maqsadidir.

Kasalxona sharoitida uzoq muddat davolanayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir qator psixologik va pedagogik to'siqlar yuzaga keladi. Birinchidan, og'ir muolajalar va doridarmonlar ta'sirida bolalarda diqqatni bir nuqtaga jamlash qiyinlashadi va dars jarayonida tez charchash kuzatiladi. Ikkinchidan, uzoq davom etuvchi kasallik o'quvchida tushkunlik, depressiv holatlar va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Boshlang'ich sinf yoshi bolalarning dunyoqarashi va mantiqiy tafakkuri shakllanayotgan davr bo'lgani uchun, ta'limdagi har qanday tanaffus ularning intellektual rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kasalxona muhitidagi cheklolvar va izolyatsiya bolaning kognitiv faolligini so'ndiradi. Uzoq muddatli davolanish muolajalarini olayotgan o'quvchilar stasionardan so'ng o'z maktablariga qaytishda va ijtimoiy muhitga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi[7]. Shuning uchun, gospital maktabda an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish kutilgan natijani bermaydi. Bunday vaziyatda bolaning matematik tafakkurini rivojlantirish uchun butunlay yangicha pedagogik yondashuv talab etiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishning eng samarali yo'li — dars jarayoniga o'yin texnologiyalarini tizimli ravishda tatbiq etishdir. O'yin texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolaning ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi[3]. Matematika darslarida o'yin elementlaridan foydalanish o'quvchi uchun fanni og'riqsiz va qiziqarli shaklda o'zlashtirish imkonini yaratadi. O'yin texnologiyalari bolani og'ir tibbiy muolajalar haqidagi o'ylardan chalg'itib, uning e'tiborini mantiqiy topshiriqlarga qaratadi. Ushbu yondashuv ta'limni majburiyatdan quvonchli jarayonga aylantiradi va o'quvchining ichki motivatsiyasini uyg'otadi. Gospital ta'lim sharoitida o'yinlar nafaqat o'qitish, balki bolaning emotsional holatini yaxshilovchi terapiya vazifasini ham bajaradi. Matematik amallarni interfaol o'yinlar orqali bajarish bolaning kognitiv funksiyalarini faollashtiradi. Shu tariqa, o'yin texnologiyalari gospital ta'limda ham bilim berish, ham ruhiy qo'llab-quvvatlashning optimal yechimi bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiruvchi metodlar hal qiluvchi ahamiyatga ega[4]. Bizning vazifamiz — matematika kursini bolaning rivojlanishiga yordam beradigan va uning fikrlash qobiliyatini o'stira oladigan shaklda taqdim etishdir. O'quvchida sonlar va amallar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish barobarida, unga ijobiy emotsiyalar ulashishni ko'zda tutamiz. Gospital maktabda har bir dars bolada "men buni uddalay olaman" degan ishonchni mustahkamlashi lozim. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish — bu har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish demakdir[6].

Gospital maktab sharoitida o'yin texnologiyalaridan foydalanishda ularning mazmuni bilan bir qatorda, texnik va tibbiy jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. O'z amaliyotimdan kelib chiqib, gospital sharoitdagi matematik o'yinlar uchun quyidagi uchta asosiy mezonni belgilab olganman:

Kasalxonadagi o'quvchi har doim ham parta orqasida o'tira olmaydi; u ko'pincha yotgan holatda yoki muolaja kursisida bo'ladi. Shuning uchun matematik o'yinlar bolaning harakatlanish imkoniyati cheklanganligini hisobga olishi, ya'ni yotgan holatda ham qulay bajarilishi shart. Masalan, og'ir jismoniy harakat talab qilmaydigan, faqatgina qo'l barmoqlari yoki ko'z bilan kuzatish orqali bajariladigan mantiqiy labirintlar va kartochkali topshiriqlar eng samarali hisoblanadi. O'yin materiallari yengil va ixcham bo'lishi, bolaning tibbiy apparatlarga ulangan holatida ham xalaqit bermasligi lozim. Pedagogik texnologiya har bir o'quvchining jismoniy va ruhiy holatiga moslashtirilgan taqdiridagina kutilgan natijani beradi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Gospital maktabda dars jarayoni shifokorlar ko'rigi, muolajalar va bolaning tez charchab qolishi bilan bevosita bog'liq. Matematik o'yinlar muolajalar orasidagi 10-15 daqiqalik tanaffuslarga moslangan, tugal mazmunga ega bo'lishi kerak. Uzoq davom etadigan va murakkab qoidalarga ega o'yinlar bolaning toliqishiga va fanga bo'lgan qiziqishi so'nishiga olib kelishi mumkin. Qisqa vaqt ichida tez natija beradigan matematik "tezkor savol-javoblar" yoki kichik mantiqiy jumboqlar bolada muvaffaqiyat hissini uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining darsga bo'lgan diqqatini faollashtirib, o'quv materialini qisqa bo'laklarda samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Gospital sharoitda o'quv materiallarining sterilligi eng muhim talabdir, chunki bolalarning immuniteti zaif bo'ladi. Ishlatiladigan o'yin anjomlari, kartochkalar va didaktik materiallar yo dezinfeksiya qilinadigan (plastik qoplamali) yoki bir martalik (qog'ozli) bo'lishi shart. O'z darslarimda ko'proq qog'ozli o'yin texnologiyalaridan foydalanaman, chunki ularni har bir o'quvchi uchun alohida tayyorlash va foydalanib bo'lingach, sanitar talablar asosida yo'qotish imkoniyati mavjud. Ta'lim vositalari o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki uning xavfsizligini ta'minlovchi qulay muhit elementi ham bo'lishi kerak [3]. Shu sababli, gospital pedagogikada "Xavfsiz o'yin — xavfsiz ta'lim" tamoyili ustuvor hisoblanadi.

Gospital ta'lim jarayonida matematikani o'rgatishda o'yinlardan foydalanish — bu shunchaki darsni qiziqarli qilish emas, balki bolaning kognitiv funksiyalarini muolajalar asoratidan himoya qilishdir. O'z ish faoliyatimda o'quvchilarning jismoniy holati va kasalxona sharoitini hisobga olgan holda quyidagi o'yin texnologiyalarini samarali qo'llab kelmoqdaman:

Sehri planshet (Grafik diktantlar). Bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng sevimli mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Katakli qog'ozda berilgan yo'nalishlar (masalan, 3 katak o'ngga, 2 katak pastga) asosida nuqtalarni birlashtirib, biror hayvon yoki buyum shaklini hosil qilish bolada nafaqat mantiqiy tafakkurni, balki muolajalar tufayli sustlashgan barmoq motorikasini ham rivojlantiradi. Bola hosil bo'lgan shaklni ko'rib, o'z mehnatining natijasidan quvonadi, bu esa unda muvaffaqiyat hissini uyg'otadi.

Matematik terapiya. Gospital sharoitda bolalarning ranglarga va yorqinlikka bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'ladi. Ushbu o'yinda o'quvchiga turli sonlar va matematik misollar yozilgan rasmlar beriladi. Shartga ko'ra, har bir son ma'lum bir rangga mos keladi: masalan, "Agar misol yechimi 10 bo'lsa — ko'k, 15 bo'lsa — sariq rangga bo'ya". Bu usul matematik amallarni zerikarli hisob-kitobdan qiziqarli ijodiy jarayonga aylantiradi va bolani dori-darmonlar hididan hamda kasalxona tushkunligidan chalg'itadi.

"Do'koncha" o'yini. Kasalxona muhitida bolalar tashqi dunyodan biroz uzilib qolishadi. "Do'koncha" o'yini orqali biz palatadagi xavfsiz buyumlar (kitob, qalamdon, o'yinchoq)ga ramziy narxlar qo'yib, ularni sotib olish jarayonini tashkil qilamiz. Bu o'yin o'quvchiga kundalik hayotda kerak bo'ladigan qo'shish va ayirish amallarini amalda qo'llashni o'rgatadi. Eng muhimi, bola bu jarayonda o'zini bemor sifatida emas, balki jamiyatning faol a'zosi sifatida his qila boshlaydi, bu esa uning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Stol o'yinlarining matematik varianti (Domino va Lotto). An'anaviy stol o'yinlarini matematik mazmun bilan boyitish gospital maktabda yuqori natija beradi. Masalan, "Matematik domino"da toshning bir tomonida ko'paytirish amali, ikkinchi tomonida esa boshqa bir misolning javobi bo'ladi. O'quvchi zanjirni davom ettirish uchun misolni to'g'ri yechishi shart. "Lotto" o'yinida esa javoblar yozilgan kartochkalarni to'ldirish orqali karra jadvali va bo'lish amallari mustahkamlanadi. Bunday o'yinlar jamoaviy ruhni uyg'otadi, hatto qo'shni palatadagi tengdoshlari bilan muloqot qilish imkonini yaratib, bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Matematik o‘yinlar bolaning nafaqat bilim darajasiga, balki uning umumiy somatik holatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kuzatuvlarimga ko‘ra, matematik o‘yinlardan so‘ng o‘quvchilarning kayfiyati sezilarli darajada ko‘tariladi, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonch ortishi natijasida og‘riqli muolajalarga chidamlilik darajasi oshadi. Bola diqqatini qiziqarli mantiqiy topshiriqqa qaratar ekan, uning organizmi stress holatidan chiqadi, bu esa tibbiy muolajalarning samaradorligini ta‘minlashda muhim psixologik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Eng muhim o‘zgarish shundaki, bola darsni majburiyat yoki qat‘iy tartibdagi mashg‘ulot deb emas, balki shaxsiy yutuq va qiziqish manbai sifatida qabul qila boshlaydi. M.E. Jumayev ta‘kidlaganidek, o‘quvchi o‘z faoliyati natijasidan qoniqish hosil qilishi uning bilish faolligini doimiy ravishda rag‘batlantirib turadi[5]. Bizning sharoitimizda esa bu rag‘bat bolaning kasallik ustidan qozonayotgan kichik, ammo muhim g‘alabasidir. Matematik jumboqni yechgan bola o‘zini intellektual jihatdan sog‘lom va tengdoshlari bilan barobar his etadi, bu esa gospitalizatsiya asorati bo‘lgan ijtimoiy yakkalanish hissini parchalaydi.

O‘yin texnologiyalari gospital ta‘lim muhitida shunchaki dars o‘tish usuli emas, balki yaxlit pedagogik reabilitatsiya vositasi hisoblanadi. Matematika darslarida qo‘llaniladigan interfaol o‘yinlar bolaning kognitiv rivojlanishini ta‘minlash barobarida, uning psixo-emotsional holatini barqarorlashtiradi. Gospital pedagogika amaliyotida ta‘lim va davolash jarayonlari bir-birini inkor etmay, aksincha, o‘zaro uyg‘unlikda bolaning tezroq sog‘ayishiga xizmat qiladi. Ta‘lim tizimida insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim [6].

Gospital maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagoglarga quyidagi metodik tavsiyalarni berishni joiz deb bilaman:

1. Har bir bola uchun o‘yin tanlashda nafaqat uning yoshi, balki tibbiy diagnozi, charchash darajasi va kundalik muolajalar jadvalini qat‘iy hisobga olish zarur.

2. O‘yin jarayoni bolani toliqtirib qo‘ymasligi, aksincha, unda ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi kerak. Agar bola charchoq alomatlarini ko‘rsatsa, o‘yinni darhol to‘xtatish yoki sodda shaklga o‘tkazish lozim.

3. Matematik topshiriqlarni art-terapiya elementlari (bo‘yash, chizish, loyihalash) bilan birlashtirish gospital sharoitida eng yuqori natija beradi.

Shuni unutmash kerakki, "Bolalar huquqlari to‘g‘risida"gi Konvensiya talablariga muvofiq, har bir bola o‘yin va dam olish huquqiga ega. Bizning vazifamiz — ushbu huquqni ta‘lim jarayoni bilan shunday uyg‘unlashtirishki, natijada bola ham bilim olsin, ham sog‘lig‘ini tiklash uchun ma‘naviy kuch topsin.

Xulosa qilib aytganda, gospital ta‘lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish nafaqat ta‘limiy, balki muhim ijtimoiy va terapevtik ahamiyatga ega jarayondir. Kasalxona sharoitida uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun o‘yin texnologiyalari shunchaki darsni qiziqarli qilish usuli emas, balki ularni tushkunlikdan chalg‘ituvchi, kognitiv funksiyalarini faollashtiruvchi va hayotga bo‘lgan intilishini kuchaytiruvchi kuchli reabilitatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. “Sehrli planshet”, “Matematik terapiya” va turli mantiqiy stol o‘yinlari orqali o‘quvchilar murakkab matematik tushunchalarni og‘riqsiz va tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada tahlil qilingan metodik yondashuvlar shuni tasdiqlaydiki, gospital pedagogikada muvaffaqiyat garovi — har bir bolaning individual-tibbiy holatini hisobga olgan holda darslarni moslashuvchan, qisqa va xavfsiz tashkil etishdir. Matematik tafakkurning uzluksiz rivojlanishi bolaning kelajakda o‘zining doimiy maktab muhitiga oson qaytishi va tengdoshlaridan ortda qolmasligi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zero, davolanayotgan o‘quvchilar uchun bilim olish jarayoni ularning jamiyatdan uzilib qolmaganliklari va sog‘lom hayotga qaytishlari uchun eng muhim

ko'prikdir. Shunday qilib, o'yin texnologiyalarini tizimli qo'llash hospital ta'limning sifatini oshirish bilan birga, bolalikning eng murakkab davrida ham o'quvchiga o'z salohiyatini namoyon etish va ruhiy tetiklikni saqlab qolish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – Toshkent, 2020.
2. Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994-y.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2016. – 416 b.
5. Jumayeva M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2005. – 312 b.
6. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. – 240 b.
7. Ormiston H., Husmann P., Wikel K., Reisinger D., & Curtin M. Educational Services and School Reintegration Supports for Youth After Acute Behavioral Health Unit Hospitalization // Continuity in Education. – 2025. – Vol. 6(1). – Pp. 162–178. DOI: <https://doi.org/10.5334/cie.178>